Prokuratura faoliyati samaradorligini oshirishning ayrim masalalari

Prokuratura organlari alohida mustaqil organ hamda mamlakat taraqqiyoti va ravnaqi uchun mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu, albatta, davlat hokimiyati tizimining markazlashgan asosiy bo‘g‘ini sifatida prokuratura tizimiga katta mas’uliyat yuklaydi.



O‘tgan yillarda prokuratura organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, xalqaro huquqiy standart va andozalarga har tomonlama javob beruvchi huquqiy asosini yaratish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida prokuratura organlarining maqomi va vakolatlari huquqiy jihatdan kafolatlandi. Qonunlarning aniq va bir xil bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishdek konstitutsiyaviy vazifa respublika prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar zimmasiga yuklandi.

Prokuraturani tashkil etish va faoliyatini konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining tajribasi prokuratura organlarining huquqiy maqomi nuqtayi nazaridan ham, ular faoliyat yuritishining normativ-huquqiy asoslarini tadqiq qilish nuqtayi nazaridan ham, ushbu tajribadan boshqa mamlakatlarda foydalanish imkonini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham alohida e’tiborga molikligi[1] bir qator olimlar va amaliyotchi mutaxassislar tomonidan e’tirof etilmoqda.

1992-yil 9-dekabr kuni “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi prokuraturaning haqiqiy mustaqilligini ta’minlashda hal qiluvchi o‘ringa ega bo‘ldi.

Prokuratura tizimini isloh qilishning keyingi bosqichlari prokuratura organlarining vakolat hamda vazifalariga bir qator o‘zgartirishlar kiritilishi bilan bog‘liqdir.

[1] Шобухин В.Ю. Конституционное регулирование статуса прокуратуры в Российской Федерации и Республике Узбекистан: сравнительно-правовой анализ.// Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси академияси ахборотномаси №4, 2019. – С. 16.

Xususan, 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonun prokuratura organlari faoliyatida tub burilish nuqtasi bo‘ldi. Unga ko‘ra, ongimizga singib qolgan “prokuror – keng vakolatga ega bo‘lgan nazoratchi” degan tushuncha yo‘qolib, bundan keyin “prokuror qonun himoyachisi, o‘zini tarbiyalab voyaga yetkazgan xalqning xizmatchisi” sifatida e’tirof etiladigan bo‘ldi.

Shuningdek, mazkur qonunga muvofiq prokurorlik nazorati tizimiga ham jiddiy o‘zgartirishlar kiritildi. Fuqarolarning qonunlarga rioya etishlari ustidan nazorat funksiyasining prokuror nazorati obyektlari qatoridan chiqarilishi bilan jamiyatda salbiy ma’noda shakllangan prokuratura “qoralovchi idora” degan tushunchaga barham berildi. Prokuratura tom ma’noda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladigan organga aylandi. Bundan tashqari, qonunda prokuratura organlari xodimlarining mas’uliyati va javobgarligini oshirishga qaratilgan yangi me’yorlar mustahkamlandi. Natijada prokurorlar faoliyatiga fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish qay darajada ta’minlanganiga qarab baho berish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

2016-yil 19-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonun bilan 2017-yildan boshlab 8-yanvarning prokuratura organlari xodimlari kuni sifatida nishonlanishi barcha prokuratura xodimlari uchun katta yangilik bo‘ldi.

Prokuratura har bir idora, muassasa yoki tashkilotning qonunlar ijrosini ta’minlashiga doir mas’uliyatini oshirish va bu borada yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko‘radi. Bu esa inson huquqlarini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

O‘tgan besh yil davomida prokuratura organlari faoliyatini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu o‘zgarishlar jamiyatimizda yuz berayotgan demokratik jarayonlarga hamohangligi bilan ahamiyatlidir. Xalqimizning prokuratura organlariga bo‘lgan ishonchi tobora ortib borayotgani ham shundan dalolat beradi.

Prokuratura organlari faoliyatiga axborot texnologiyalarining tatbiq etilishi, kadrlar masalasiga bo‘lgan talablarning o‘zgarishi, qonunchilikni takomillashtirish borasidagi islohotlarning joriy etilishi, prokuratura uchun yangi vazifalarning yuklatilishi, yangi tizimlarning tashkil etilishi prokuratura organlari faoliyatining rivojlanish tendensiyalarini belgilaydi.

Prokuratura tizimi faoliyatiga raqamli texnologiyalarini keng joriy qilish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini muntazam oshirib borish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish masalalariga ham katta urg‘u berilmoqda.

Muhim jihat shundaki, prokuraturani tom ma’nodagi “xalq prokuraturasi”ga aylantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar samarasi o‘laroq, uzoq yillar davomida odamlarda jazolovchi organ sifatida tasavvur uyg‘otib kelgan tizim endi ularning haq-huquqlari, o‘z navbatida, davlatning manfaatlarini himoya qiluvchi, jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat tantanasini ta’minlashga hissa qo‘shuvchi tuzilmaga aylanmoqda[2].

Prokuratura faoliyati keng jamoatchilikka tobora ochilib kelayotgani, hududlardagi sektorlar faoliyati doirasida aholining ijtimoiy-iqtisodiy himoyasi kuchaytirilib, muammolari hal qilinayotgani, eng asosiysi, prokurorlarning mahalliy kengashlar oldidagi hisobdorligi joriy etilgani natijasida prokuratura tom ma’noda xalqchil tizimga aylandi.

O‘zbekiston prokuraturasining so‘nggi yillarda oshkoralik va ochiqlik sari muhim qadamlar qo‘yganligi jamiyatda huquqiy ongning yuksalishiga, xalqning adolatga bo‘lgan ishonchining ortishiga olib kelmoqda.

Prokuratura organlari faoliyati samaradorligini oshirish va modernizatsiyalash yuzasidan o‘zaro tajriba almashish, xalqaro standartlar va xorij amaliyotini o‘rganish asosida “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonunni yangi tahrirda qabul qilish bugungi kunda dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda prokuraturaning qonunlarning aniq va bir xil bajarilishini nazorat qilish funksiyasi birinchi o‘rinda turishi lozim. Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz har qaysi huquqni muhofaza qilish organi bevosita o‘z vakolati doirasidan chiqmaydigan, bir-birining funksiyasini takror etmaydigan tizim shakllantirishimiz shart. Lo‘nda qilib ayt-

[2] Йўлдошев Н.Т. Янги Ўзбекистон прокуратураси: ислоҳотларнинг дастлабки самаралари // Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси академияси ахборотномаси. Махсус сон, 2022. – 4-b.

ganda, ichki ishlar – jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash bilan, milliy xavfsizlik – davlatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish bilan shug‘ullanishi lozim. Prokuratura esa qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borishi zarur”[3].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda prokuratura organlari faoliyatiga oid qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish borasida bir qator taklif va tavsiyalarni bildiramiz.

Fuqarolarning huquqlari, jamiyat va davlat manfaatlarini ta’minlashda prokuratura organlarining rolini oshirish borasida:

prokuraturaning boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan farqli ravishda konstitutsiyaviy organ ekanligini inobatga olib, uning davlat organi sifatida to‘la mustaqilligini ta’minlovchi hamda maxsus konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini belgilovchi “Prokuratura to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunni qabul qilish;

xorijiy davlatlar qonunchiligi rivojlanishi tendensiyalarida prokurorning sudga da’vo arizasi (ariza) bilan murojaat qilish vakolati kengligi e’tirof etilib, uni protsessual qonunchilikda aniq belgilash;

sudlarda jinoyat ishlari ko‘rilishida prokuror ishtiroki fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoyalashga xizmat qilishi kerakligi hamda mazkur yo‘nalishda prokuraturaning huquqlarini kengaytirish;

prokurorning fuqarolik va iqtisodiy protsessdagi huquqiy holati to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqot ishlari ko‘lamini kengaytirish hamda qonunchilikda uning huquqiy holatini mustahkamlash;

prokuraturaning hokimiyatlar bo‘linishi tizimida alohida o‘ringa ega ekanligidan kelib chiqqan holda, prokuratura organlari xodimlarining ayni bir vaqtda hokimiyatning boshqa tarmoqlarida xizmat qilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

prokurorlar qaror qabul qilishda mustaqil va faqat qonunga asoslanishi, siyosiy hokimiyat ta’siridan va turli partiyaviy manfaatlardan xoli tarzda qonunga asoslanib ishlashini kafolatlash;

prokuratura organlari o‘z faoliyati va amalga oishrgan ishlari bo‘yicha xalq va jamoatchilik oldidagina hisobdor bo‘lishini mustahkamlash;

prokuratura faoliyatini nazorat qilishni idoraviy, parlament va jamoatchilik nazorati shaklidagina amalga oshirishni belgilash;

prokuratura faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, qonuniylikni ta’minlash borasidagi ilg‘or mexanizmlar va texnologiyalarni nazarda tutuvchi yuqori texnologiyali prokuror nazoratini yanada rivojlantirish;

prokuraturaning qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatining metodologik asoslarini inson huquqi himoyasi, tadbirkor manfaati kafolati nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish.

Prokuratura organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatidagi rolini kuchaytirish borasida:

kibertahdidlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jinoyat ishlari tergovi doirasida elektron dalillar to‘plashga oid protsessual qonunchilikni takomillashtirish;

advokatura va prokuratura o‘rtasida o‘zaro teng, samimiy va konstruktiv faoliyat olib boradigan “muloqot maydoni”ni yaratish;

jinoiy yo‘l bilan topilgan aktivlarni qaytarish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar bilan samarali va istiqbolli kelishuvlarga erishish;

jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atmaslik va ularga nisbatan jinoiy ta’qibdan chetlashtirish choralarini qo‘llashning protsessual tartibini ishlab chiqish;

sodir etilgan huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar, sud natijalari, jazoni o‘tash bilan bog‘liq boshqa ma’lumotlar jamlanadigan yagona integratsiyalashgan elektron bazani yaratish hamda zarur ma’lumotlarni tegishli organlar tomonidan shifrlangan kodlar asosida tezkor olish imkoniyatini yo‘lga qo‘yish;

jinoyat ishi tergovini to‘liq elektronlashtirish, protsess ishtirokchilarining elektron imzodan foydalanish tizimini yo‘lga qo‘yish;

surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatini raqamlashtirish orqali fosh etilmagan jinoyatlar, bedarak yo‘qolgan shaxslar hamda shaxsi noma’lum murdalar bo‘yicha yagona axborot tizimini yaratish;

jinoyat ishi doirasida tezkor ma’lumotlar olishni ta’minlash maqsadida, tergov organlarini vazirlik va idoralar axborot tizimlari bilan o‘zaro integratsiya qilish.

A. ODINAYEV,
Bosh prokuratura akademiyasi kafedra boshlig‘i,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi //https://president.uz/uz/lists/view/1371.